

Oriental Journal of Education



READING LITERACY AND CRITICAL THINKING: IMPORTANT ASPECTS FOR SCHOOL EDUCATION (Strategies for developing critical thinking and information analysis skills among students)

Kunduzkhan Ruziyeva

Chief specialist of the "Analysis of research results" department

National Institute of Pedagogical Skills named after A. Avloni

Center for International Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: reading literacy, critical thinking, information analysis, school education, pedagogical innovations.

Received: 31.01.25

Accepted: 02.02.25

Published: 04.02.25

Abstract: Today, the education system faces the challenge of not only improving students' reading literacy but also developing their critical thinking and information analysis skills. It is crucial to teach students not just to memorize information but also to analyze it, identify key ideas, and draw independent conclusions. In particular, with the advancement of information technologies, the ability to distinguish false information and misconceptions has become increasingly important. Therefore, special attention should be given to fostering critical thinking skills in school education. This article examines strategies for developing students' critical thinking skills, analyzes international experiences, and explores pedagogical innovations in this area. Additionally, effective methods for enhancing reading literacy and critical thinking are recommended, including problem-based learning, discussions, evidence-based approaches, and independent research.

O'QISH SAVODXONLIGI VA TANQIDIY FIKRLASH: MAKTAB TA'LIMI UCHUN MUHIM JIHATLAR (Tanqidiy fikrlash va axborotni tahlil qilish qobiliyatlarini o'quvchilar orasida rivojlantirish strategiyalari)

Kunduzxon Ruziyeva

"Tadqiqot natijalarini tahlil qilish" bo'limi bosh mutaxassisi

A. Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy instituti

Xalqaro tadqiqotlar markazi

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: oʻqish savodxonligi, tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish, maktab taʼlimi, pedagogik innovatsiyalar.

Annotatsiya: Bugungi kunda taʼlim tizimi oldida oʻquvchilarning nafaqat oʻqish savodxonligini oshirish, balki tanqidiy fikrlash va axborotni tahlil qilish qobiliyatlarini shakllantirish vazifasi ham turibdi. Oʻquvchilarni faqatgina maʼlumotni yodlashga emas, balki uni tahlil qilish, asosiy gʻoyalarni ajratib olish va mustaqil xulosa chiqarishga oʻrgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, axborot texnologiyalari rivojlanishi bilan birga yolgʻon maʼlumotlar va notoʻgʻri tushunchalarni farqlash qobiliyati ham muhim boʻlib qolmoqda. Shu boisdan, maktab taʼlimida tanqidiy fikrlash koʻnikmalarini rivojlantirishga alohida eʼtibor qaratish lozim. Ushbu maqolada oʻquvchilarning tanqidiy fikrlash koʻnikmalarini rivojlantirish strategiyalari, bu boradagi xalqaro tajribalar va pedagogik innovatsiyalar tahlil qilinadi. Shuningdek, oʻqish savodxonligi va tanqidiy fikrlashni shakllantirishga yordam beradigan samarali metodlar, jumladan, muammoli taʼlim, bahs-munozaralar, dalillashga asoslangan yondashuv va mustaqil tadqiqotlar kabi usullar tavsiya etiladi.

ГРАМОТНОСТЬ ЧТЕНИЯ И КРИТИЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ: ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ (Стратегии развития критического мышления и навыков анализа информации у учащихся)

Кундузхон Рузиева

Главный специалист отдела «Анализ результатов научных исследований»

Национальный институт педагогического мастерства им. А. Авлони

Международный исследовательский центр

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: грамотность чтения, критическое мышление, анализ информации, школьное образование, педагогические инновации.

Аннотация: В настоящее время перед системой образования стоит задача не только повышения уровня грамотности чтения учащихся, но и формирования у них навыков критического мышления и анализа информации. Важно не просто заучивание информации, а умение анализировать её, выделять основные идеи и делать самостоятельные выводы. В частности, с развитием информационных технологий умение различать ложную информацию и неправильные представления становится особенно важным. Поэтому в школьном образовании необходимо уделять особое внимание развитию навыков критического

мышления. В данной статье рассматриваются стратегии развития критического мышления у учащихся, анализируется международный опыт и педагогические инновации в этой области. Кроме того, предлагаются эффективные методы формирования грамотности чтения и критического мышления, включая проблемное обучение, дискуссии, аргументированный подход и самостоятельные исследования.

KIRISH

O'quvchilarning o'qish savodxonligi va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish XXI asr ta'lim jarayonining asosiy maqsadlaridan biridir. Bugungi kunda global axborot oqimining keskin ortib borishi sharoitida o'quvchilardan o'qilgan ma'lumotlarni nafaqat tushunish, balki ularga tanqidiy yondashish, dalillarni tahlil qilish va mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatlariga ega bo'lish talab etiladi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarining keng tarqalishi noto'g'ri yoki buzib ko'rsatilgan axborot bilan ishlash ehtimolini oshirmoqda, bu esa o'quvchilarning axborotni tahlil qilish, ishonchli va noto'g'ri ma'lumotni ajratish qobiliyatlarini rivojlantirish zaruratini kuchaytiradi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish nafaqat ularning akademik natijalarini yaxshilaydi, balki ularni hayotiy muammolarni hal qilishga tayyorlaydi, mustaqil qaror qabul qilish va ijodiy yondashish qobiliyatlarini oshiradi. Shuningdek, o'qish savodxonligi va tanqidiy fikrlash qobiliyatlari rivojlangan o'quvchilar mantiqiy fikrlash, muhokama yuritish, turli nuqtai nazarlarni solishtirish va dalillarga asoslangan qaror qabul qilish kabi ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

Shu sababli, maktab ta'limida ushbu ko'nikmalarni rivojlantirish bo'yicha innovatsion yondashuvlarni joriy etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Jahon tajribasida turli pedagogik yondashuvlar, jumladan, muammoli ta'lim, bahs-munozaralar, dalillashga asoslangan yondashuvlar va mustaqil tadqiqot faoliyatlari orqali o'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish keng qo'llanilmoqda. Ushbu maqolada mazkur qobiliyatlarni shakllantirish strategiyalari, xalqaro tajribalar va samarali pedagogik metodlar tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

O'qish savodxonligi va tanqidiy fikrlash bo'yicha amalga oshirilgan xalqaro tadqiqotlar ta'lim tizimining rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqotlar orqali muallif o'rganilayotgan muammoning dolzarbligi va ilmiy asoslanganligini chuqur ang'laydi hamda mavjud intellektual hudud doirasini baholaydi. Xususan, o'qish savodxonligi va tanqidiy fikrlashni shakllantirish bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish va taqqoslash imkonini beradi.

PISA (Programme for International Student Assessment) va PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) kabi xalqaro baholash dasturlari o'quvchilarning matnni tushunish, axborotni tahlil qilish va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini o'lchaydi. Ushbu dasturlar natijalari o'qish savodxonligini oshirish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda maktab ta'limining o'rni va ahamiyatini ko'rsatadi.

Singapur ta'lim tizimida o'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan muammoli ta'lim va ijodiy yondashuv metodikasi keng qo'llaniladi. Singapurda ta'lim oluvchilar o'quv jarayonida real muammolarni tahlil qilish va amaliy yechimlarni topishga yo'naltiriladi.

Finlyandiya ta'lim tizimi esa o'quvchilarni mustaqil fikrlash, dalillarni tahlil qilish va bahs-munozaralarda faol ishtirok etishga undaydi. Finlyandiyada o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqilgan.

Germaniya ta'lim tizimi ham o'quvchilarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda ilg'or tajribaga ega. Germaniyada o'quvchilarga dalillash, mantiqiy fikrlash va tahliliy yozuv bo'yicha muntazam mashg'ulotlar o'tkaziladi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimida o'qish savodxonligi va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratiladi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarning nafaqat akademik yutuqlarini, balki kundalik hayotdagi muammolarni hal qilish qobiliyatlarini ham oshiradi. Shu sababli, O'zbekiston ta'lim tizimida ham ushbu ilg'or tajribalarni qo'llash va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi o'rganilayotgan muammo yechimiga olib boruvchi asosiy strategiyalarni aniqlash, tadqiqot uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni to'plash va ularni tahlil qilish usullarini belgilashni o'z ichiga oladi. Ushbu tadqiqotda sifat va miqdoriy usullar qo'llanildi, bunda xalqaro tajriba va ilmiy adabiyotlar tahlili asosida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga doir yondashuvlar o'rganildi.

Birinchi bosqichda PISA va PIRLS kabi xalqaro baholash dasturlarining natijalari tahlil qilinib, o'qish savodxonligi va tanqidiy fikrlash qobiliyatlariga ta'sir etuvchi asosiy omillar o'rganildi. Ushbu dasturlarda o'quvchilarning matnni tushunish, axborotni tahlil qilish va dalillash qobiliyatlari baholangan bo'lib, ularning natijalari asosida maktab ta'limida qo'llanilishi mumkin bo'lgan samarali strategiyalar aniqlab chiqildi.

Ikkinchi bosqichda ilmiy manbalar tahlili o'tkazildi. So'nggi yillarda nashr etilgan ilmiy maqolalar va ta'lim bo'yicha tadqiqot ishlari tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bo'yicha samarali metodlarni aniqlashga yordam berdi. Xususan, muammoli ta'lim, bahs-munozaralar, dalillashga

asoslangan yondashuvlar va mustaqil tadqiqot faoliyatlari ta'lim jarayonida qo'llanishi mumkin bo'lgan asosiy pedagogik yondashuvlar sifatida ajratib olindi.

Uchinchi bosqichda eksperimental tadqiqotlar o'tkazildi. O'quvchilarning o'qish savodxonligi va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini oshirish uchun turli metodikalar sinovdan o'tkazildi, bunda real ta'lim jarayonida ularning samaradorligi baholandi. Eksperiment natijalari shuni ko'rsatdiki, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bo'yicha faol yondashuvlar o'quvchilarning matnni chuqur tushunishi, mantiqiy fikrlashi va mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatlarini sezilarli darajada oshiradi.

Tadqiqot strategiyasi sifatida kuzatish, eksperiment, keys-stadi (vaziyatli tahlil), savolnoma, etnografik va arxiv tadqiqot usullari qo'llanildi. Har bir usul o'ziga xos maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, tadqiqotning aniqligi va ishonchliligini oshirishga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalari tanqidiy fikrlash va o'qish savodxonligini rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqish va ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ushbu tadqiqot natijalari o'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun samarali strategiyalarni aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot davomida xalqaro tajriba, ilmiy adabiyotlar tahlili va eksperimental usullar asosida o'quvchilarning o'qish savodxonligi va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini oshirishga yordam beruvchi yondashuvlar o'rganildi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun quyidagi strategiyalar samarali hisoblanadi:

Savol berish texnikasi: O'quvchilarga ochiq savollar berish orqali ularning mustaqil tahlil qilish qobiliyatlari rivojlantiriladi. Bu usul orqali o'quvchilar ma'lumotni tahlil qilish, asosiy fikrlarni ajratib olish va o'z xulosalarini shakllantirishga o'rganadilar. Shuningdek, ularga o'z fikrlarini dalillash va asoslash imkoniyati yaratiladi.

Turli manbalarni solishtirish: O'quvchilarga bir mavzuga oid turli axborot manbalari bilan ishlash imkoniyati berilib, ular ishonchli va yolg'on ma'lumotlarni ajratish ko'nikmalarini shakllantiradilar. Bu usul orqali o'quvchilar tanqidiy tahlil qilish, turli nuqtai nazarlarni taqqoslash va dalillarga asoslangan xulosalar chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Muammoli vaziyatlar yaratish: O'quvchilarga real hayotiy masalalar va muammolar berilib, ularni mustaqil ravishda yoki guruh bo'lib tahlil qilish topshirildi. Ushbu yondashuv orqali o'quvchilar tanqidiy yondashish, mavjud muammolarni tahlil qilish va samarali yechimlarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

Bahs-munozaralar tashkil etish: O'quvchilar ishtirokida munozaralar va dalillash asosida fikr almashish mashg'ulotlari o'tkazildi. Bahs-munozaralar davomida o'quvchilar dalillarni to'plash, tahlil qilish, qarama-qarshi fikrlarni muhokama qilish va o'z nuqtai nazarlarini asoslash

qobiliyatlarini rivojlantirdilar. Bu esa ularning mantiqiy fikrlash va analitik yondashuv ko'nikmalarini mustahkamladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yuqoridagi strategiyalar o'quvchilarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Ushbu metodlarni maktab ta'limiga tatbiq etish orqali o'quvchilarning axborotni tahlil qilish, dalillash va mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatlarini oshirish mumkin. Shu boisdan, ta'lim jarayonida ushbu strategiyalarni yanada kengroq qo'llash tavsiya etiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'qish savodxonligi va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarining shakllanishi zamonaviy ta'lim tizimi uchun dolzarb masala hisoblanadi. Bugungi kunda o'quvchilarning axborotni tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, dalillarni baholash va mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu tadqiqot davomida o'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan samarali strategiyalar tahlil qilindi va o'rganildi.

Olingan natijalar asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Ta'lim dasturlariga tanqidiy fikrlashga asoslangan innovatsion metodlarni kiritish: O'qish savodxonligi va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun muammoli ta'lim, bahs-munozaralar, dalillashga asoslangan yondashuvlar va mustaqil tadqiqot faoliyatlari kabi metodlarni kengroq qo'llash zarur.

O'qituvchilarning tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bo'yicha malakasini oshirish: O'qituvchilarga tanqidiy fikrlash metodikasi bo'yicha maxsus treninglar va seminarlar tashkil etish, ularga zamonaviy pedagogik yondashuvlar bo'yicha bilim va ko'nikmalar berish lozim.

Dars jarayonida turli manbalar bilan ishlashni rag'batlantirish: O'quvchilarga turli axborot manbalarini solishtirish, ishonchli va yolg'on ma'lumotlarni farqlash, dalillarni tahlil qilish va xulosa chiqarishga o'rgatish lozim.

Bahs-munozaralar va interaktiv o'qitish usullarini keng joriy etish: Tanqidiy fikrlashni shakllantirish uchun o'quvchilarga bahslar, guruhiy ishlar, ijodiy fikrlash mashg'ulotlari va muammoli vaziyatlarni tahlil qilish imkoniyatlarini berish maqsadga muvofiq.

Kelgusida ushbu sohada qo'shimcha tadqiqotlar o'tkazish va xalqaro tajribalarni chuqurroq o'rganish: Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish borasida Singapur, Finlyandiya, Germaniya va boshqa ilg'or ta'lim tizimlari tajribalarini o'rganish, ularning yondashuvlarini mahalliy ta'lim tizimiga moslashtirish zarur.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'qish savodxonligi va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlar o'quvchilarning bilim olish jarayonini

samaraliroq qilishga yordam beradi. Shu bois, ta'lim jarayonida ushbu yondashuvlarni keng qo'llash va yanada takomillashtirish muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. OECD. PISA 2018 Results. Paris: OECD Publishing, 2019.
2. Mullis, I. V. S., & Martin, M. O. PIRLS 2021 Assessment Framework. Boston: TIMSS & PIRLS International Study Center, Boston College, 2021.
3. Paul, R., & Elder, L. Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Learning and Your Life. Pearson Education, 2014.
4. Willingham, D. T. Critical Thinking: Why Is It So Hard to Teach? American Educator, 31(2), 8-19, 2007.
5. Ennis, R. H. The Nature of Critical Thinking: An Outline of Critical Thinking Dispositions and Abilities, 2011.
6. Singapur Ta'lim Vazirligi. Tanqidiy Fikrlashni Rivojlantirish bo'yicha o'quv dasturi. Singapur, 2020.
7. Finlyandiya Ta'lim Kengashi. Ta'lim va tanqidiy fikrlash. Finlyandiya, 2021.
8. Facione, P. A. Critical Thinking: What It Is and Why It Counts. Insight Assessment, 2015.
9. Lipman, M. Thinking in Education. Cambridge University Press, 2003.
10. Kuhn, D. Education for Thinking. Harvard University Press, 2005